

NAVOIY G‘AZALLARIDA NATURALIZM KO‘RINISHLARI

Yusupova Gulnoza

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada naturalizm haqida nazariy ma‘lumot berilgan hamda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning g‘azallarida “naturalizm” ko‘rinishlari aniqlanib, tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Lirika, nazm, g‘azal, naturalizm, ramziylik, borliq, Quyosh.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье даются теоретические сведения о натурализме, а также выявляются и анализируются проявления «натурализма» в газелях великого мыслителя Алишера Навои.

Ключевые слова: *Лирика, стихотворение, газель, натурализм, символизм, существование, Солнце.*

ANNOTATION

This article provides theoretical information about naturalism and identifies and analyzes the manifestations of "naturalism" in the ghazals of the great thinker Alisher Navoi.

Key words: *Lyric, poem, ghazal, naturalism, symbolism, existence, Sun.*

Har bir ijodkor, yozuvchi, shoir o‘z asarlarini yangicha ruhda, o‘ziga xos uslubda yaratadi. Kimdir tabiat chizgilarini go‘zal tarzda tasvirlab bersa, yana kimdir hayotiy hodisalar hamda voqelikni tuyg‘ularga ko‘chirib, ularga so‘zlar orqali zeb beradi.

Mana shunday yuksak hislar adabiyotning “lirika” deb ataluvchi bo‘limi, ya’ni “Nazm bo‘stoni” da namoyon bo‘ladi.

Lirika – (yun. , cholg‘u asbobi) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo‘lib, o‘zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg‘u-kechinmalarni tasvirlashi olinadi.[3; 182]

Alisher Navoiy bu xususida shunday deydi:

Nazm anga gulshanda gul ochilmog‘lig‘i,

Nasr qaro yerga sochilmog‘lig‘i.[1; 281]

Darhaqiqat, shoir ta’biri bilan aytganda, nasrda so‘zlar nazmdagi kabi jilvalanmaydi, tarqoq holda bo‘ladi. Nazm esa bog‘dagi eng chiroyli gullarni saralab ko‘rsatadi. Navoiy bu ikki sohada ham, birday barakali ijod qilgan. Biz ularni lirik shoir sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Navoiy birgina g‘azal yozish bilan cheklanib qolmaydi.

O‘z ijodida Sharq she’riyatining 16 xil janridan foydalanadi, va ularning ko‘p qismi g‘azal janriga mansubligi bilan alohida ajralib turadi.

G‘azal – arabcha so‘z bo‘lib, uning ma’nosi "oshiqona so‘z" yoki "xotin-qizlar bilan yoqimli muomalada bo‘lish" demakdir.[2;59] Navoiy asarlarini o‘qir ekanmiz, ularda so‘z qo‘llash mahoratini, go‘zal yaratishlarni, qolaversa, borliq tasvirini o‘zida mujassam etuvchi naturalizmning yorqin na’munalarini ko‘rishimiz mumkin.

Naturalizm – (fransuzcha, naturalisme; lotincha, naturalis - tabiiy) real borliqni ob’ektiv, aniq aks ettirishdir. Yozilayotgan asarni ko‘zgu deb oladigan bo‘lsak, borliq bu ko‘zguda o‘z qiyofasini ko‘radi. Demak, adabiyotning eng go‘zal turlaridan bo‘lgan lirikani biz qaysidir ma’noda hissiyotshunoslik deb, unga inson ruhiyatini chizib beruvchi bir musavvir sifatida qarashimiz mumkin. Albatta lirika faqatgina tuyg‘ular bilan chegaralanib qolmay, "naturalizm" oqimi ham unda o‘z xususiyatlarini namoyon etadi. Lirikada naturalizmning ko‘rinishi tabiat hodisalarini, borliq va inson munosabatlarini mujassam etgan holda vujudga keladi.Navoiy g‘azallarida uning ajib na’munalarini ko‘rishimiz mumkin.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi "G'aroyib us-sig'ar" dostonining 477-g'azalida shunday bayt bor:

Dahr bog'ining nasimi sovurar, gul xirmanin,
Anga ul gul gulshani sari guzore bo'lmasin.

Hammamizga ma'lumki, xirmon shamolda sovuriladi. Endi shu holat aks ettirilgan misralar mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

"Dunyo bog'ining shamoli gul xirmonini sovuradi, bu shamol yor gulshani tomon o'tmasin, ya'ni bormasin, yorim gullarini sovurmasin, deydi.

Bu yerda shamol xirmonni emas, gullarni sovurmoqda. Oshiq esa, yorining bog'iga bu shamol qadam bosishini istamayapti. Oddiy tabiat hodisasidan ajoyib tasvir yaratadi.

Gulshani husningga ziynat berdi, terdin qatralar,
Kim ko'rubtur bo'yla gulbarg uzra shabnam gavhari.

[5; 347]

Tongda maysalar yuziga shudring tushib, ajib bir go'zallik hosil qiladi. Gavhar donalaridek mayda-mayda bo'lib, oftob nurlarida yaltiraydi. Navoiy Ushbu baytida yor yuzida ko'ringan ter tomchilarini maysa yuzidagi shudringga qiyoslaydi. U go'zal husniga yana-da husn qo'shayotganini ta'kidlab o'tadi. Albatta, bu jarayonni kuzatmagan, hayratga tushmagan inson bo'lmasa kerak. Shoir mana shu hayratni misralarida tasvirlab beradi.

Qarong'udurur olam ohim, saylidin,
Quyosh yanglig' och oraz olam aro.

[6; 2]

Quyosh chiqmasa, butun olam zimistonga aylanadi, zamin yuzini allaqanday zulumot egallab oladi. Oshiq yor ko'yida shu qadar oh chekadiki, shu sabab butun olam qorong'ulikka ko'miladi. So'ng iltijo qiladi "Mening ohlarim tufayli qorong'ulikka to'lgan dunyoni Quyosh kabi yuzlaring ochganicha, olamni munavvar et!"

Shoir lirikasida mohirona kuzatishlarni, borliq haqidagi tasavvurlarini timsollarda tasvirlab berganligi hech bir kishini hayratga solmasdan qo‘ymaydi. Yana shuni kuzatishimiz mumkinki, Navoiy ko‘p g‘azallarida, ruboiylarida Quyoshga murojaat qiladi. Albatta, bu yerda ramziylik ham bor. Quyosh – yorug‘lik, mehr va ezgulik timsoli. Shoir doimo ezgulikka talpinib yashaydi. Qalbidagi g‘am-alamlarni nur orqali yo‘qotishga harakat qiladi.

Hijron tun daf‘ olgach, bildimki, yuz ochibsen,
Xurshid vujudig‘a tong nuri dalil ermish. [6; 169]

Tun mahv etilgach, quyosh ko‘tariladi, tong yorishadi. "Bildim, sen yuzingni ochganing sabab, ayroliq tuni daf bo‘ldi. Quyosh vujudidan to‘kilayotgan tong nurlari bunga dalildir." – deb o‘z fikrini tasdiqlaydi.

Navbahor ayyomi bo‘lmish, men diyor-u yorsiz
Bulbul o‘lg‘ondek xazon fasli gul-u gulzorsiz. [8 ; 66]

Bahor kelganda, butun olam yangilikka, yashillikka ko‘miladi.

Daraxtlar gullab, ba‘zi qushlar makonlarini yangilaydi, borliq uyg‘onadi.

Jonivorlar o‘ziga juft qidira boshlaydi, bahor diydor fasliga, muhabbat fasliga qiyoslanadi. Shoir bahor kelishini, tabiatdagi o‘zgarishlarni tasvirlaydi. Ammo olamga bahor kelgan bo‘lsa-da hamon u yolg‘iz, yorsiz, bulbullar o‘lganday, uning bog‘lari xazonliday tuyuladi. So‘ngra his tuyg‘ulari tabiat hodisalariga qorishib ketadi.

Shu g‘azalning keyingi baytini tahlil etamiz:

Goh sarv uzra, gohi gul uzra bulbul nag‘masoz,
Vahke, menmen gungu lol ul sarvi gulruxsorsiz.

Bulbullar goh daraxtga, goh gulga qo‘nib nag‘malanadi. Qahramon bulbul kabi kuylagisi keladi, ammo yori yo‘qdir. U gung va lol qolgan, bulbullarga havasda qaraydi. (Shoir ham butun umrini ijodga baxshida etgan va yolg‘iz o‘tganligi to‘g‘risida ham bir qancha fikrlar mavjud. Balki, bu g‘azal shoirning o‘z qismatiga ishoradir...)

Xas emas girdob arokim, boshinga evrulgali
Suv uza sargashta oshiq jismining xoshokidur.

[4; 164]

Suvda hosil boʻladigan girdoblar yuzida xas-xashaklar toʻplanib qoladi.

Navoiy bu tabiat hodisasini ham goʻzal tarzda ifodalab, suv ustida suzgan narsalarni esa xas-xashakka emas, oshiq jismining boʻlaklariga oʻxshatadi.

Navoiy gʻazallarini oʻqir ekanmiz, shoirning mahorati, kuzatuvchanligi, tasavvurlariga qoyil qolmasdan iloji yoʻq. Ular har lahza tabiat bilan hamnafas yashaydi. Borliq vujudining bir qismiga aylanib ketganday, goʻyo har baytidan soflik, begʻuborlik ufurib turadi. Navoiy ijodini oʻrganganimiz sayin, tobora mehrimiz ortaveradi. Zero, shoir taʼkidlaganlaridek:

" Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,
Unda yoʻq ibtido paydo, bunda yoʻq intiho paydo."

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik "Tamaddun". Toshkent (2018)
2. Sharafjon Sariyev. ADABIYOT "Head book". Toshkent (2018)
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent (2004)
4. Alisher Navoiy. Qaro koʻzim. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. Toshkent (1988)
5. Alisher Navoiy. Gʻaroyib us-sigʻar "Fan". Toshkent (1988)
6. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya Toshkent "Fan" Toshkent (1987)
7. Dilnavoz Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. "Taʼlim-media" nashriyoti Toshkent (2019)
8. Alisher Navoiy. Vafo qilsang Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent (2004)